O‘zbekiston mustaqilligining 30 yilligiga matematik talabalarimizdan munosib sovg‘a

Talabalarimiz Xalqaro Matematika olimpiadasida 5 ta oltin, 6 ta kumush, 4+1 ta bronza medal va 2 ta faxriy yorliqni qo'lga kiritishdi!

2021 yilning 2-7 avgust kunlari universitet talabalari o‘rtasidagi Xalqaro Matematika Musobaqasi (IMC - International Mathematical Competition) bo‘lib o‘tdi. Ushbu olimpiadada 55 dan ortiq davlatlardan 592 nafar talabalar ishtirok etdi. Jumladan, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University, Carnegie Mellon University (AQSH), Saint-Petersburg State University, Moscow Institute of Physics and Technology (Rossiya), Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn, Georg-August-Universität Göttingen (Gemaniya), University of Cambridge, University College London, Imperial College London, University of Manchester, (Buyuk Britaniya) va boshqa nufuzli universitetlardan talabalar ishtirok etishdi.

O‘zbekistonlik talabalarning ushbu olimpiadada munosib ishtirokini taminlash maqsadida joriy yilning Mart - Iyul oylarida V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti mutaxassis o‘qituvchilari Behzod Qurbonboyev va Farhod Haydarovlar tomonidan tayyorgarlik o‘quv mashg‘ulotlari olib borildi. Tayyorgarlikning yakuniy bosqichi Iyul oyida o‘tkazilib, to‘rt bosqichli saralash natijalariga ko‘ra 17 nafar talaba terma jamoaga qabul qilindi.

Talabalarimizning olimpiada ishtiroki uchun badal to‘lovi Matematika instituti huzuridagi "Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi" hisobidan amalga oshirildi.

Olimpiada natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Abdushukur Ahadov-oltin, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Jasurbek Imomov-oltin, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Maftuna Samatboyeva-oltin, Urganch davlat universiteti talabasi Islombek Ismoilov-oltin, Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi Kamal Sadikov-oltin, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Shohzod Quroqboev-kumush, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Doniyor Yazdonov-kumush, O‘zbekiston Milliy universiteti

talabasi Jahongir Turayev kumush, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Jahongir Norboev-kumush, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Davrbek Oltiboev-kumush, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi Abdumalik Abduqayumov-kumush, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Laziz Abdullaev-bronza, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Nilufar Rajabova-bronza, Guliston davlat universiteti talabasi Olimjon Jalilov- bronza, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Jahongir Tursunboyev-bronza, Qarshi davlat universiteti talabasi Asrorbek Jabborov(mustaqil ishtirokchi)lar- bronza medallariga, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Javohir Iskandarov-faxriy yorliq, O‘zbekiston Milliy universiteti talabasi Nodirbek G‘afforov- faxriy yorliqqa sazovor bo‘lishdi.